



Sirdaryo viloyati

Yangiyer shahar

1-umumiy o'rta ta'lim maktabining

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ergasheva Ra'no Yuldashevnaning

4-sinflar uchun "O'qish"

fanidan yozgan

DARS ISHLANMASI

Mavzu: Tinchlik nima? (Umida Abduazimova)

Mavzu: **Tinchlik nima? (Umida Abduazimova)**

Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Urush, tinchlik, tilak, do'stlik, tinchlik qushi.

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta'rifi: Tinchlik nima she'rini yod olishadi. Tinchlik yo'lida qoshmoqchi bo'lgan hissalarini yozishadi. Tinchlik nomli rebus ishlanadi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: Interfaol, muammoli vaziyat, rolli o'yin.

Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash.

Jihoz: : darslik, magnitofon, tinchlik haqida o'quvchilar chizgan rasmlar, Umida Abduazimova rasmi, oq kabutar, turnalar, humo qushi rasmlari, jo'natma, kompyuter, multimedia

Nazorat: O'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsadi:

- Ta'limiy: o'quvchilarni Umida Abduazimovanning "Tinchlik nima?" she'ri bilan tanishtirish. Tinchlik haqidagi qarashlari, fikrlarini aniqlash;
- Tarbiyaviy: tinchligimizning qadriga yetish, uni doim saqlashga chorlash, ota-bobolarimizga munosib farzand bo'lish ruhida tarbiyalash;
- Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning she'r yod olish ko'nikmalarini rivojlantirish, og'zaki nutqlarini o'stirish, dunyoqarashlarini boyitish;

Kutilayotgan natija			
Dars yakunida o'quvchilar tinchlik buyuk ne'mat ekanligini anglashadi. She'r yod olish ko'nikmalari mustahkamlanadi.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Muommoli vaziyat sifatida Muhammad Yusuf haqida ma'lumot beriladi..	Suhbat Muammoli vaziyat	3 daqiqa
2-bosqich (Refleksiya) ehtiyohlarni aniqlash	Jo'natma oshib ko'riladi. Darslikdagi savollarga javob berishadi. Sahn ko'rinishi qoyiladi.	Savol javob rolli o'yin	12 daqiqa
3-bosqich darsning borishi.	Rebus orqali "tinchlik" so'zi hosil qilinadi. Umida Abduazimova haqida ma'lumot beriladi va "Tinchlik nima?" she'ri ifodali o'qiladi.	Rebus, matnni ifodali o'qish	15 daqiqa
4-bosqich Mustahkamlash	Tinchlik haqida qo'shimcha she'r aytiladi. Tezkor savol javob o'tkaziladi.	Tezkor savol javob	10 daqiqa
5-bosqich Baholash Darsni yakunlash	O'quvchilar kaft rasmiga Tinchlik yo'lida qo'shmoqchi bo'lgan hissalarini yozib yer shari rasmiga yopishtirishadi. Olingan baholar e'lon qilinadi.		3 daqiqa
6-bosqich	She'rni yod olish, tinchlik haqidagi maqollardan yod olish topshiriladi.	tushuntirish	2 daqiqa

Mavzu: Tinchlik nima? Umida Abduazimova

Darsning maqsadi:

- **Ta'limiy:** o'quvchilarni Umida Abduazimovaning "Tinchlik nima?" she'ri bilan tanishtirish. Tinchlik haqidagi qarashlari, fikrlarini aniqlash;
- **Tarbiyaviy:** tinchligimizning qadriga yetish, uni doim saqlashga chorlash, ota-bobolarimizga munosib farzand bo'lish ruhida tarbiyalash;
- **Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning she'r yod olish ko'nikmalarini rivojlantirish, og'zaki nutqlarini o'stirish, dunyoqarashlarini boyitish;

Dars turi: Yangi materialni o'rganish

Dars metodi: interfaol, muammoli vaziyat, rolli o'yin

Dars jihozi: darslik, magnitofon, tinchlik haqida o'quvchilar chizgan rasmlar, Umida Abduazimova rasmi, oq kabutar, turnalar, humo qushi rasmlari, jo'natma, kompyuter, multimedia

DTS talabi: Tinchlik nima? she'ri orqali o'quvchilar ongida tinclik bebaho ne'mat ekanligini anglatish, mustaqil fikrlarini kengaytirish

Darsning borishi:

I bosqich: Darsni tashkil qilish jarayoni (3 min)

- *Salomlashish*
- *Sinfda kim navbatchi?*
- *Hozir qanday fasl?*
- *Bahorda qanday bayramlarni nishonlaymiz?*
- *Dunyoda qanday yangiliklar?*

MUAMMOLI VAZIYAT

O'qituvchi : -Men sizga dilimdagi tilaklarimni bildirmoqchiman:


Tilak

Har kimning ham sochlariga oq tushsin,
Ajin tushsin yuzlariga, dog` tushsin.
Har kimning ham quvvat ketib belidan,
Qo`llariga aso - bir tayoq tushsin.

Imoni sof, yuzga kirib yorug` yuz,
To`ylar ko`rib yelkasidan tog` tushsin.
Jismiga so`nggi safar oldidan
O`z bolasin qo`lidan tuproq tushsin...

Ushbu she`rni kim yozgan

MUHAMMAD YUSUF



U 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanida tug`ilgan. 1998 yili O`zbekiston xalq shoiri unvoni bilan mukofotlangan. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2013 yil 27 dekabrda “O`zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligini nishonlash to`g`risida” Qaror qabul qildilar.

II bosqich: O`tilgan va uyga berilgan mavzuni so`rash jarayoni (12 min)

- Sinfga **“JO`NATMA”** kelibdi qani ochib ko`raylikchi.

Jo`natmada boshqa maktab o`quvchilarining “Do`st bo`lish” maqsadida yozib yuborgan maktublari chiqadi.

- Sizda ham uzoqlarga ko`chib ketgan do`stingiz bormi?
- U bilan qanday muloqotga kirishasiz?
- Xudoyberdi To`xtaboyevning “DO`STLIK” hikoyasida Abduqodir bilan Vova qanday qilib do`stlashib qolishdi?

O`quvchilar hikoya asosida sahna ko`rinishi qo`yib berishadi

III bosqich: Yangi mavzuni tushuntirish jarayoni (15 min)

Bugungi mavzuni aniqlash uchun quidagi REBUSni ishlashimiz lozim.



Mavzu yoziladi: "Tinchlik nima?" Umida Abduazimova she'ri

Umida Abduazimova

(1953-yili tug'ilgan) Umida Abduazimova 1953-yilda Toshkent shahar Yunusobod tumani „Bobodehqon“ mahallasida tug'ilgan. O'rta maktabni oltin medal bilan tugatib, Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirgan

Umida Abduazimovaning „Sevinchim“, „Seni ko'rgim kelaveradi“, „Arazlamang“, „Salom, hayot“, „Qadimiy qo'shiq“, „Oydin orzular“, „Umrin ziynati“, „Oymoma bog“ nomli o'ndan ortiq she'riy va publitsistik to'plamlari o'z kitobxonlarini topgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Umida Abduazimova 1997-yil „Shuhrat“ medali bilan taqdirlangan.

TINCHLIK NIMA?

- **Tinchlik nima?**

- **Sho'xliging**

Polvonliging tinchlikdir.

Usting but-u, to'qliging,

Sog'lomliging tinchlikdir...

IV bosqich: Yangi mavzuni mustahkamlash jarayoni (10 min)



Yangi bir she'r yozay, olam tinglasin,
O'kirgan vulqonning tubi muzlasin.
Quyosh ham nur sochar barchamizga teng,
Do'stlarim hech qachon urush bo'lmasin.

Tezkor savol-javob:

- **“TINCHLIK” so'zini siz qanday tushunasiz?**
- **Odamlar nima uchun urushni yomon ko'radilar?**
- **Jahonda tinchlik o'rnatish uchun kurashgan kishilardan kimlarni bilasiz?**
- **Tinchlikni saqlash uchun respublikamizda olib borilayotgan ishlar haqida nimalarni bilasiz?**

V bosqich: Darsni yakunlash. O'quvchilarni baholash jarayoni (3 min)



O'quvchilar oldilaridagi ko'l kafti tarqatmasiga “Dunyoda tinchlikni saqlaylik” shiori ostida o'z tilaklarini yozishadi. So'ngra shu qo'ldalarni YER SHARI rasmi ustiga yopishtirishadi.

Olgan baholar e'lon qilinib, o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI bosqich: Uyga vazifa berish. (2 min)

She'ni yod olish.

Tinchlik haqidagi maqollardan yod olish